

XI–XIV ASRDAGI BA'ZI TURKIY LUG'ATLARDA QO'LLANGAN KIYIM –KECHAK NOMLARINGING SOLISHTIRILISHI

*Termiz davlat universiteti 2-bosqich talabalari
Abdurayemova Nozima, Xoliyarova Malika
Ilmiy rahbar: Xidirova Iroda*

Annotatsiya: Maqolada ba'zi qadimgi turkiy lug'atlardan "Devonu lug'otit turk", "At–tuhfatus zakiyat fillug'otit turkiya" hamda "Muhokamat ul lu'atayn" kabi bir qator asarlarda duch kelinadigan kiyim–kechak turlariga oid so'zlarning leksik– semantik tahlili , lug'atlarda keltirilgan kiyim–kechaklarning bir–biridan tubdan va qisman farqlari , asarlarda topilgan nomlarning soni xususida mushohada qilinadi.

Annotation. In the article, the lexical-semantic analysis of the words related to the types of clothing found in some ancient Turkish dictionaries, such as "Devonu lug'otit turk", "At-tuhfatus zakiyat fillug'otit turkiya" and "Muhokamat ul lu'atayn", The basic and partial differences of the clothes mentioned in the dictionaries are observed in terms of the number of names found in the works.

Kalit so'zlar: "Devonu lug'otit turk", "At–tuhfatus zakiyat fillug'otit turkiya", "Muhokamat ul lu'atayn", leksik – semantik tahlil , tubdan va qisman farqlilik , statistika.....

Key words: Devonu lug'otit turk", "At-tuhfatus zakiyat fillug'otit turkiya", "Muhokamat ul lu'atayn", lexical-semantic analysis, fundamental and partial differences, statistics.....

Kiyim – kechak deb badanni yopib turuvchi har qanday mato parchasiga aytiladi. Kiyimlar tikiladi , to'qiladi , yoki boshqa usullar bilan tayyorlanadi. Kiyim turiga ko'ra – ichki kiyim , ustki kiyim , bosh kiyim, oyoq kiyim ; vazifasiga ko'ra – kundalik , uyda , dam olish paytida, bayram va to'y marosimlarida kiyiladigan kiyimlar , ish kiyim , sport kiyim , rasmiy kiyim , maxsus kiyimlarga bo'linadi ; ayollar , erkaklar va bolalar kiyimlariga ajratiladi . (Internet ma'lumoti). Mahmud Qoshg'ariyning " Devonu lug'otit turk" ("Turkiy so'zlar devoni "– turkiy tillar haqidagi qomusiy asari (1071–1072). (Bu asarda XI asrning 2–yarmida Markaziy Osiyoda va G'arbiy Xitoy hududida istiqomat qilgan turkiy urug' va qabilalar , ularning ijtimoiy ahvoli, tili , tarixi, bu hududning geografiyasi , metrologiyasi va astronomiyasiga oid qimmatli ma'lumotlar yozib qoldirilgan).(keyingi o'rinlarda MK) XIII–XIV asrlarda yaratilgan , muallifi bizga noma'lum bo'lgan "At –tuhfatus zakiyat lug'otit turk" ("Turkiy til haqida noyob tuhfa ") (keyingi o'rinlarda "At– tuhfat") hamda Alisher Navoiyning "Muhokamat ul –lug'atayn" kabi asarlarda namunalar keltirilganligi xususida bir qancha misollar bilan izohlangan .

"Devonu lug'otit turk" , " At tuhfatus zakiyat fillug'otit turkiya" hamda "Muhokamat ul lu'atayn" asarlarida yozuvchilar tomonidan yig'ilib lug'at tarkibiga kiritilgan kiyim –kechak nomlarining tahlil jarayonida ularning aksariyati Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida uchrashi, kabi ma'lumotlarga , muallifi noma'lum bo'lgan " At tuhfatus zakiyat fillug'otit turkiya" va " Muhokamat ul lu'atayn" asarlarida bunday to'liq ta'riflarning deyarli uchramasligiga guvoh bo'lamiz." Devonu lug'otit turk" asarida kiyim–kechak nomlarining 76 ta nomi , " At tuhfatus zakiyat fillug'otit turkiya" asarida 34 ta va "Muhokamat ul lu'atayn" asarida esa 5 ta kiyim –kechak nomlarini ko'rib chiqdik. Masalan, ton (туh)–kiyim (МК369–bet) ,kelim–kiyim (At tuhfat 215 bet) , konchak–kiyim (At tuhfat 221bet), кисва–kiyim ("Muhokamat ul lu'atayn" 36 bet) . Yaqa–kiyimning yoqasi (МК 331 bet),jaqa –to'n yoqasi (At tuhfat 82 bet) , жайб–yoqa ("Muhokamat ul lu'atayn" 34 bet) . Üm (ум)–ishton ,lozim ,shalvar (МК 30 bet) , ichton–ishton (At tuhfat 214 bet) .a:z (a:з)–oq suvsar po'stin (МК 45 bet) , kurk–po'stin (At tuhfat 95 bet) , tijin – po'stin (At tuhfat 68 bet) Eliglik–qo'lqop (МК 75 bet) , qolluq–qo'lqop (At tuhfat 64 bet). Kiyim va yoqa so'zlari 3 ta lug'atda ham kuzatilsa, ishton, qo'lqop, po'stin so'zlari qolgan 2 ta lug'atda uchraydi, ammo "Muhokamat ul lug'atayin" da uchratmadik.

Fikrlarga xulosa qilib shuni aytilish o'rinliki , yuqorida keltirilgan lug'atlar tarkibida uchraydigan ayrim kiyim –kechak nomlarining har uchala lug'atlardagi o'rinlariga , xususiy va umumiy bo'lgan jihatlariga leksimalar ma'nosi , uchta lug'atda kiyim –kechak nomlarining nechtaligiga va shu kabi ko'rinishlariga ahamiyat qaratildi va maqola yuzasidan fikr – mulohazalar yuritildi .Ushbu 3 ta lug'atdagi kiyim –kechak nomlarining grammatik tahlilini keyingi maqolachilarga qoldiramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mahmud Koshg'ariy, Turkiy so'zlar devoni (" Devonu lug'otit turk"). –Toshkent : Fanlar Akademiyasi, 1963, –B.175.
2. At tuhfatus zakiyatu fillug'otit turkiya [Turkiy til (qipchoq tili) haqida noyob tuhfa]. –Toshkent: Fan, 1968.
3. Muhokamat ul lug'atayin (Ikki til muhokamasi)
4. Sayfullayeva R. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili -Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. 391-b.
5. Mengliyev B. Hozirgi o'zbek adabiy tili. nash. Tafakkur bo'stoni. T. 2018.
6. Nematov X, Rasulov P. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. –T; O'qituvchi, 1995.
7. Normamatov S. Leksikografiya asoslari -T, 2020.
8. Xidirova I, Sobirova M (2023), IMLO MUAMMOLARI VA YECHIM. Modern Science and Research. 2(3). 138-141.
9. www.ziyonet.uz.